



REKREATION RESURLARNI BAHOLASH VA TURISTIK MARSHRUTLARNI XARITALASH: ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

18-aprel 2025-yil



Buxoro-2025

Uds: 258.228.415.447.35

KBK: 75.81

“Rekreatsion resurslarni baholash va turistik marshrutlarni xaritalash: ilmiy-uslubiy yondashuvlar”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to’plami. 2025-yil 18-aprel: - Buxoro :

1. Qo`yidagi tarkibdan iborat dasturiy qo`mita

- | | | | |
|----|------------------|---|---|
| 1. | O.X. Xamidov | – | Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais; |
| 2. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini; |
| 3. | D.Sh. Yavmutov | – | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor, i.f.d, professor, loyiha rahbari, a`zo; |
| 4. | B.N. Navruz-Zoda | – | Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d.,psofessor, a`zo; |
| 5. | N.S.Ibragimov | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a`zo; |
| 6. | A.J. Abdullayev | – | Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor,a`zo; |
| 7. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 8. | J.R.Toxirov | – | Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 9. | Y.K.Sunnatov | – | Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |

2. Qo`yidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo`mita

- | | | | |
|-----|------------------|---|---|
| 1. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais; |
| 2. | D.Sh. Yavmutov | – | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor, i.f.d, professor, loyiha rahbari, rais muovini; |
| 3. | B.N. Navruz-Zoda | – | Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d.,psofessor, a`zo; |
| 4. | N.S.Ibragimov | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a`zo; |
| 5. | A.J. Abdullayev | – | Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor,a`zo; |
| 6. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 7. | J.R.Toxirov | – | Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 8. | Y.K.Sunnatov | – | Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 9. | Z.S.Nurov | – | Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a'zo; |
| 10. | O.X.Azimov | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası o`qituvchisi, a`zo; |
| 11. | M.S.Sayfullayeva | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası o`qituvchisi, a`zo; |
| 12. | N.R.Omonova | – | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrası o`qituvchisi, a`zo; |

Mazkur to'plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g'oyalar mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o'zlari mas'uldirlar.

ISBN: 978-9910-743-12-2

5. <https://www.bmwk.de/Redaktion/DE/Artikel/Tourismus/tourismuspoleitik-schwerpunkte-kulturtourismus.html>
6. <https://www.kubi-online.de/artikel/kulturelle-bildung-tourismus>
7. <https://roadgenius.com/statistics/tourism/germany/>
8. <https://www.globaldata.com/store/report/germany-tourism-source-market-analysis>
9. <https://www.businesslocationcenter.de/en/tourism>
10. <https://www.statista.com/statistics/644714/travel-tourism-total-gdp-contribution-germany/>
11. https://www.destatis.de/DE/Presse/Pressemitteilungen/2024/05/PD24_187_45412.html.
12. <https://tradingeconomics.com/germany/tourist-arrivals>
13. <https://www.futuremarketinsights.com/reports/germany-outbound-tourism-market>

XALQARO TURIZMDA MADANIYATLAR XILMA-XILLIGI, QADRIYATLAR MASALALARI

**Buxoro davlat universiteti
Iqtodiyot va tirizm fakulteti
mustaqil tadqiqotchisi**

UMIROV JASURBEK TEMIRQULIYEVICH
j.t.umirov@buxdu.uz. Tel: +99893-658-81-99

Turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlarda o'zaro munosabatga kirishuvchi madaniyatlar o'rtasida juda katta farq bo'lib, mamlakatga qanchalik ko'p sayyohlar kirib keladigan bo'lsa, ushbu mamlakatning madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfi shunchalik yuqori bo'ladi. Madaniyatning asosiy belgilari mamlakatning geografik joylashuvi, qadriyatlari, turli sinflardan tashkil topganligi, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holati, turli qarashlari, turli xil dinga e'tiqodidan, urf-odatlardan va boshqa turli sabablardan kelib chiqadi. O'xshash madaniyatlar esa o'xshash qadriyatlar, me'yorlar, qonunlar, urf-odatlar, qarashlar, xulq-atvor va tildagi o'xshashliklarni o'z ichiga oladi. Tashrif buyuriluvchi mamlakatda turistlarning o'zini tutishi, mezbon madaniyatini hurmat qilishi juda muhim hisoblanadi. Turli xil nizolarning kelib chiqishi ham mezbon madaniyatini bilmaslik, yoki ularning madaniyatini hurmat qilmaslik natijasida kelib chiqadi.

Madaniyat so'zining nimaligini aniqlaydigan bo'lsak -bu jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llanadi. Tor ma'noda „madaniyat“ atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi. Demak madaniyat bu nafaqat nomoddiy ko'rinishda, balki moddiy ko'rinishda ham bo'larkan. Masalan: insoniyatning tarixiy o'tmishi davomida u tomonidan yaratilgan qdimiy obidalar, binolar, tarixiy inshootlar, san'at asarlari, kulolchilik namunalari, kiyim-kechaklar, rassomchilik asarlari, kitoblar va asarlar, qurol-yaroqlar va boshqa shu kabi ashyolar moddiy madaniyatga misol bo'ladi. Bunday moddiy shakldagi ashyolar biror mintaqaning o'tmishdagi va bugungi kundagi madaniyati haqida guvohlik berib turadi. Nomoddiy madaniyat esa asrlar davomida e'zozlab kelingan urf-odatlarimiz, an'analарimiz, milliy bayramlar, qo'shiqlar, raqslar, tilimizdagi o'ziga xoslik, to'y marosimlariz va turli xil boshqa ko'rinishdagi xalq hayotida muhim hisoblanadigan ajdodlarimizdan me'ros qolgan qadriyatlardan iborat. Nomoddiy madaniyatlar har bir millatning va xalqning o'tmishidan guvohlik beradi. Uning qanday yashagani, turmush tarzi, e'tiqodlari haqida bugungi avlodni xabardor qiladi.

„Madaniyat“ arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroi turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o'troq holda yashab,

o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.⁵⁷ Shu tariq madaniyat so'zining paydo bo'lishiga asos solingan. Qadimgi Rimda madaniyat tushunchasi ham xuddi Arablardagi singari ijtimoiy hayotni shahar turmush tarzini ifodalovchi shakli sifatida talqin qilingan va o'rta asrlarga kelib bu tushuncha keng tarqalgan. Madaniyat tushunchasi keyinchalik sivilizatsiya tushunchasiga ham yaqin turgan.

Bundan tashqari madaniyat so'zining ma'nosini izohlashda turli xil qarashlar ham mavjud. Madaniyatni bir joyda qotib qolgan so'z sifatida talqin qilinishi noto'g'ri, u vaqt va makonda o'zgarib, o'z ma'nosini o'zgartirib boraveradi. Qaysidir davrga xos bo'lgan madaniyat vaqt o'tgandan keyin qabul qilinmasligi va muomaladan chiqarilishi mumkin, bunda madaniyatning ko'rinishi urf-odat yoki udum shakliga o'tadi. Madaniyatning 2 asosiy turi — moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalarini hamda uning natijalari (mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Ma'naviy madaniyatga ong, ma'naviyat sohalar kiradi (bilim, axloq, ta'lim-tarbiya, huquq, falsafa, etika, estetika, fan, san'at, adabiyot, mifologiya, din va boshqalar).⁵⁸ Madaniyatda mazkur jamiyat, millat, guruhlarining xarakterli xususiyatlari ham o'z ifodasini topadi. Jamiyat, millat, guruhlar aynan o'z madaniyati bilan farqlanadi. Xalq madaniyati – uning hayot tarzi, kiyimlari, yashash maskani, oshxonasi, xalq og'zaki ijodi, diniy tasavvurlari, inonch–etiqodlari va boshqalardir.

Madaniyat turlari va darajalari:

- Umumiy,
- Sivilizatsion.
- etnik,
- diniy,
- Iqtisodiy tizim va rivojlanish darajasiga qarab.
- Millatga ko'ra -
- Haqiqiy;
- Rezident;
- Sanoat va kasbiy sohaga qarab
- Tashkiliy,
- Individual madaniyat turlariga bo'linadi.

Qadriyat ham madaniyatning bir ko'rinishi bo'lib, u kishilarning axloqiy normalarini aks ettiruvchi madaniyat shaklidir. Qadriyat deganda ota bobolarimiz tomonidan tarixdan e'zozlab kelingan muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushunchadir. Erkinlik, tinchlik, adolat, bironvga yaxshilik qilish, an'analimiz, urf-odatlarimiz, to'y marosimlarimiz bu bizning qadriyatlarimizdir. Har bir insonda o'zining qadriyatlar tizimi mavjud bo'lib, ular kishiga nima to'g'ri yoki nima noto'g'ri ekanligi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, u nima qilish kerak yoki qilmaslik kerak, nima foyda yoki zarar, qaysi turdagi voqealar ijtimoiy qoniqishga olib kelishini aniqlaydi. Oddiy qilib aytganda kishilarning yashash makonida qadrlaydigan va amal qiladigan barcha ezgu amallar ularning qadriyatlarini hisoblanadi. Udumlar ham insoniyat tomonidan amal qilinadigan qadriyat ko'rinishi bo'lib, uning farqi shundaki, udumlar biron hududda yashovchi xalqlar yoki insonlarning faqat kam soni kishilarigina amal qiladigan madaniyat shaklidir. Bunga misol qilib to'ylar va marakalarimizda bajaradigan kichik marosimlarni, salomlashish paytidagi o'ziga xos harakatlarni, bayramlarimizdagi ba'zi o'ziga xosliklarni aytish mumkin. Udumlar yo'qolib ketayotgan an'analarni saqlab qolish va uni kelajak avlodga yetkazish uchun asrab kelinadi.

Turizmda madaniyatning quyidagi turlari farqlanadi:

⁵⁷ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniyat#:~:text=Madaniyat%20%E2%80%94%20jamiyat%2C%20inson%20ijodiy%20kuch,h,moddiy%20va%20ma%CA%BCnaviy%20boyliklarda%20ifodalanadi.>

⁵⁸

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniyat#:~:text=Madaniyat%20%E2%80%94%20jamiyat%2C%20inson%20ijodiy%20kuch,moddiy%20va%20ma%CA%BCnaviy%20boyliklarda%20ifodalanadi.>

- **Turist madaniyati**- bu turist boradigan mamlakatda o'zining asl madaniyatini xulq-atvorini namoyon qilishidir
- **Mezbon madaniyati**- bu turist ayni vaqtda tashrif buyurgan mamlakat hududidagi madaniyatdir. Bu shuningdek milliy madaniyat ham deb ataladi va ya'ni mahalliy xalq an'analari va urf – odatlarini o'zida mujassamlashtiradi
- **Turizm madaniyati**- sayohatning barcha ishtirokchilari o'rtasida bo'ladigan tartib qoidalar asosida kechadi. Ya'ni xizmat va mahsulot yaratuvchilar, turoperatorlar, turagentlar, mehmonxona biznesi vakillari hamda turistlar o'rtasida o'zaro madaniyatdir.

Madaniyat, qadriyat, urf-odat va an'analar har bir xalqning o'ziga xosligini bildirib turib, ushbu tushunchalar xalqaro turistik oqimlarni o'ziga jalp qilishda juda qiziq hodisalar hisoblanadi. Chetga sayohat qiladigan turistlarning aksariyati o'zga xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, milliy bayramlari urf-odatlariga qiziqishadi. Turizm sohasida qadriyatlar va ularning turist tanloviga ta'sirini yetarlicha o'rganilmagan. Taniqli olimlar Pitst va Vudsayd qadriyatlarni tashrif buyuruvchilar xarakteriga ko'ra tanlov ehtimollarini o'rganishgan. Ularning tadqitoricha turistlar o'xshash madaniyat va qadriyatlar amal qiladigan mintaqalarga sayohat qilishga moyil bo'ladilar. Pizam va Kalontane esa qadriyatlar shkalasi turistning dam olish xarakteriga asoslanib tadqiq qilinadi, deydi. Umumiy qilib aytganda, sayyohning sayohat uchun destinatsiya tanlovida qadriyatlar ham muhim o'rin egallaydi. Xulosa qilib ayganda madaniyat - insoniyatning butun faoliyatidagi to'g'ri yo'l va natijadir. Uni har bir insoning o'ziga xosligida uchratish va his qilish mumkin. Xalqaro tashriflarda ayniqsa bu jarayon yaqqol seziladi. Madaniyat insonlarni qanday yashashga va qanday fikrlashga, qanday faoliyat bilan shug'ullanishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Temirkulovich, U. J. (2021). Importance of entrepreneurship development in tourism industry (Bukhara region). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 700-704.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniyat>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadriyat>
4. Xayrullayeva, N., Kadirova, S., & Aripova, M. (2021). The Role of Education and Sustainable Tourism in Achieving Cost Effectiveness during a Pandemic. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
5. Xamroyev X.R. Xalqaro turizm darslik: 2021-yil, 124-bet.

BUXORO VOHASI REKREATSIYA RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI

Isoyeva Madina Nu'mon qizi
Buxoro davlat universiteti Tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro vohasining rekreatsiya resurslari va ulardan foydalanishning geografik asoslari, jumladan tabiiy geografiya hamda resursshunoslik fanining nazariy va amaliy masalalariga doir ma'lumotlar tahlil qilingan va munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy resurs, iqlim resurslari, Buxoro vohasi, tabiiy resurslarni boshqarish, landshaft, antropogen landshaft, cho'l zonasi, madaniy landshaft,

Rekreatsiya resurslari insonning dam olishi, salomatligini tiklashi va turizm faoliyati bilan shug'ullanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan tabiiy va madaniy obyektlar majmuidir. Ushbu resurslar sayyohlik va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib, ular turli mamlakatlar va hududlarda turizmni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ularni samarali boshqarish va himoya qilish orqali turizmni yanada rivojlantirish, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va atrof-muhitni muhofaza

Faroxiddin, Aliuseynov Imron Qodirova Nozima Rasulovna, Qodirova Dilnoza Rasul qizi	TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETINGNI QO'LLASHNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI.....	35
Aslanov Abdullo Xojimurodovich	SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA TURIZMDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	39
Nilufar Axrorova Uktamovna	MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA TALABALAR TURIZMIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	42
Azimov Olimjon Orifovich	HUDUDLARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHDA TURIZM SOHASI: INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA XORIJIY TAJRIBALAR.....	46
Jumaniyazova Ozodaxon Zaripboy qizi, Xamroyev Xalim Rozikovich	MADANIY-TARIXIY TURIZMNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (GERMANIYA DAVLATI MISOLIDA)	52
UMIROV JASURBEK TEMIRQULIYEVICH	XALQARO TURIZMDA MADANIYATLAR XILMA-XILLIGI, QADRIYATLAR MASALALARI.....	57
Isoyeva Madina Nu'mon qizi	BUXORO VOHASI REKREATSIYA RESURLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI.....	59
Ruziyeva Gulinoz Fatillovna	MILLIY HUNARMANDCHILIKNI DIVERSIFIKATSIYALASH ORQALI ISTE'MOLCHILARGA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	63
2-SHO'BA. GIS TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI KARTOGRAFIYA: TURISTIK XARITALASHDAGI INNOVATSIYALAR		
С.С.Давлатов	ИННОВАЦИИ В ТУРИЗМЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВОЙ КАРТОГРАФИИ.....	68
Yokubjonova Xulkarbonu Yokubovna	INTERNATIONAL COOPERATION FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN HOSPITALITY IN UZBEKISTAN (GIZ): the importance of preliminary seminar-training in the Fergana valley	72
Хамраев Х.Р.	О ВОЗМОЖНОСТЯХ СОЗДАНИЯ ТЕМАТИЧЕСКОГО ПАРКА «АБИЦЕНА» В БУХАРЕ.....	77
Qilichov Muhriddin	BUXORO SHAHRI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDAN TURIZMDA BARQAROR FOYDALANISH IMKONIYATLARI TAHLILI: GIS ASOSIDA.....	82
Yoriyeva Dilafruz Oltinova	BUXORO VILOYATIDA JOYLASHTIRISH VOSITALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	88
Salimova Sarvinoz Fazliddin qizi	ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TURISTIK MARSHRUTLARNI ISHLAB CHIQISHDAGI AHAMIYATI.....	92
Ismailova Sitora orkulovna	ELLA MAILARTNING "TURKISTAN SOLO" ASARIDAGI MARSHRUTINI INTERAKTIV XARITAGA KIRITISHNING ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	95
3-SHO'BA. TARIXIY-MADANIY MEROS VA EKOTURIZMNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI		
Abror Juraev	EXPLORING RECREATIONAL AND ECO-TOURISM PREFERENCES IN BUKHARA REGION: A SURVEY-BASED STUDY.....	99
Yuldosheva Bibirajab Mirjonova	HISTORICAL FOUNDATIONS AND PROSPECTS OF INTEGRATING BUKHARA REGION'S CULTURAL AND ETHNOGRAPHIC HERITAGE INTO CONTEMPORARY TOURISM	

	SYSTEMS.....	102
Raupov G'ayrat Soyibovich	MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONINING KONSEPTUAL MODEL.....	107
Mamaraimova Zaxro Axmat qizi	MUQADDAS SHAHAR MEROSINING GLOBAL E'TIROFI.....	109
Qilichov Muhriddin	BUXORO SHAHRI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDAN TURIZMDA BARQAROR FOYDALANISH IMKONIYATLARI TAHLILI: GIS ASOSIDA.....	113
4-SHO'BA. TURIZM INFRATUZILMASI, MARKETING VA IQTISODIY SAMARADORLIK		
Dilshod Shoimardonqulovich Yavmutov	THE FORMATION OF ECOTOURISM INFRASTRUCTURE AND ITS ROLE IN REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT: THE CASE OF BUKHARA REGION.....	120
Abror Turobovich Jurayev, Nutfillo Salimovich Ibragimov, Istamxo'ja Olimovich Davronov	NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN BUXORO MEHMONXONALARIDA YARATILGAN SHART-SHAROITLAR TAHLILI.....	124
Abror Turobovich Jurayev, Nutfillo Salimovich Ibragimov, Kamol Yuldashev Sharifovich	JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN OVQATLANISH MASKANLARIDA YARATILGAN SHART- SHAROITLAR TAHLILI (BUXORO MISOLIDA)	128
Xodjayev Anvar Rasulovich	FRANCHAYZING ORQALI TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH: INFRATUZILMA, BRENDING VA MIJOZLAR TAJRIBASI.....	132
Akhmatova Mohigul Ergash qizi	APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE QUALITY OF TRANSPORT SERVICES IN TOURISM.....	137
Abdullayev Abror Bozarboyevich	MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LARNI SOTISH TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	142
Shoyimardonqulova Shahlo Dilshodovna	THE DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN THE BUKHARA REGION AND ITS IMPACT ON REGIONAL ECONOMIC EFFICIENCY.....	146
Gulmira Shavkatovna Isokova	MICE TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEKISTONDAGI TURIZM INFRATUZILMASINING ROLI: ZAMONAVIY MEHMONXONA, KONGRESS VA TRANSPORT-LOGISTIKA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	149
Kurbanova Mohinur Khabib kizi	ZIYARAT TOURISM IN THE DIGITAL AGE: TRANSFORMATIONS, STATISTICS, FUTURE PROSPECTS.....	155
Bo'stonova Zilola Bo'ston qizi	TARIXIY-MADANIY TURIZMNING AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	163
Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li	KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	166